

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING ISLOM HUQUQI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI

S.S. Saidjalolov

**O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14195547>

Annotatsiya. Mahmud Zamaxshariy Movarounnahrdan chiqqan buyuk mufassir, mutakallim, faqihdir. Movarounnahrda ilmiy, madaniy va iqtisodiy ahvol tanazzulga yuz tutganida, Mahmud Zamaxshariy ilm-fanni tiklash va tiklashga xizmat qildi, xususan, Qur'on va fiqhda fidoyi olimlar bilan suhbatlashdi. Uning o'nta asari bugun ma'lum bo'lib, bu asarlar ustidagi ilmiy izlanishlar to'xtovsiz davom etmoqda. Bu maqola asosan, "Ruus al-masail" ning islam huquqi rivojidagi asosiy manbalardan biri bo'ladi.

Kalit so'zlar: No'mon ibn Sobit, Mahmud Zamaxshariy, ibn Xalikon, Xoji Xalifa, Muhammad ibn Idris ash-Shofeiy, Ruus al-masail, Toj at-tarajim, A'lom.

THE ROLE OF MAHMUD ZAMAKHSHARĪ IN THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC LAW

S.S. Saidjalolov

**Docent of the International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in History (PhD)**

Annotation: Maḥmūd Zamakhsharī is a great mufassir, mutakallim, jurist who came from Movarounnahr. When the scientific, cultural and economic situation in Mā Warā' al-Nahr was in decline, Maḥmūd Zamakhsharī served to revive and restore science, specially in Qur'ān and fiqh studies with selfless scientists. Ten of his works are known today, and scientific researches on these works continue without stopping. This article will be one of the main sources of Ru'ūs al-masā'il in the development of Islāmic law.

Key words: Nu'mān ibn Thābit, Maḥmūd Zamakhsharī, ibn Khallikān, Ḥājjī Khalīfah, Muḥammad ibn Idrīs ash-Shāfi'i, Ru'ūs al-masā'il, Tāj al-tarājim, Qur'ān.

O'tmishda o'tgan har bir mujtahid o'zi yashayotgan diyor shart-sharoitini ham yaxshi bilgan va bu muhit uning fatvolarida o'z aksini topgan. Shuning uchun turli diyorlardagi mujtahidlarning ba'zi masalalar bo'yicha bergen fatvolari bir-biriga o'xshash bo'limgan. Misralan, Imom Shofeiy (r.h.) Hijozda yashayotganida bir fatvoni bergen bo'lsa, Misrga borganidan so'ng undagi shart-sharoit taqozosidan kelib chiqqan holda boshqacha fatvo bergen. Yoki bir masala bo'yicha Iroqda yashagan Imom Abu Hanifa (r.h.) bilan, Madinada yashagan Imom Molik (r.h.)ning fatvolari bir biridan farq qilgan. Har bir musulmon islam hukmlariga o'z diyorlaridagi mujtahidlarning fatvolariga muvofiq amal qilgan. Bu islomda mazhablarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan¹.

Mujtahidlik maqomiga erishish uchun ilmning kamida besh sohasini mukammal bilish talab etilishi ma'lum. Mazkur talab ijтиҳодning eng quyisi darajasi uchun belgilangan. Fiqh va faqihlarga bag'ishlangan kitoblarda ijтиҳodning quyidagi yetti darajasi mavjudligi zikr qilingan:

¹ S.Saidjalolov. Islomdagi mazhablar va oqimlar.-T.: Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012. B. 29.

1. Mujtahidi mutlaq. Abu Hanifa No'mon ibn Sobit, Muhammad ibn Idris Shofeiy, Molik ibn Anas, Ahmad ibn Hanbal, Sufyoni Savriy, Abdurahmon Avzo'iy kabi ham usuliy, ham far'iy masalalarda mustaqil yondashuvga ega bo'lgan hamda o'z fiqhiy mazhablariga asos solgan mujtahidlar².
2. Mujtahidi mazhab. Usulda mazhabboshiba ergashgan, ammo ayrim juz'iy masalalarda u bilan farqli qarashga ega bo'lgan mujtahidlar. Imom A'zamning ikki mashhur shogirji Imom Abu Yusuf, Muhammad ibn Hasan Shayboniylar kabi.
3. Mujtahidi muntasib. Usulda ham, furu'da ham mazhabboshiba ergashgan holda mazhabboshidan hech qanday rivoyat bo'lмаган masalalarda fatvo bergan mujtahidlar.
4. Mujtahidi muxarrij. Bir mazhabdagi mujtahidlarning turli fatvolari orasidan dalili kuchli va sahihini ajratib bergan mujtahidlar.
5. Mujtahidi murajjih. Bir mazhabdagi mujtahidlarning fatvolarini saralab, ulardan qaysi biri yaxshiroq va haqiqatga yaqinroq ekanini aniqlab beruvchi mujtahidlar. Ayrim olimlar muxarrij va murajjih darajalari asli bir toifa deydilar, mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgani uchun.
6. Muftiylar va huffozlar. Mujtahid darajasiga yetmagan, mazhab masalalarida mustaqil fatvo bera olmaydigan, ammo fiqhni chuqur o'zlashtirgan, mazhabdagi fatvolarning ko'pini yod olgan (huffoz – hofizning ko'pligi – yodlagan, yodlaganlar) kishilar. Ular mazhab fatvolarini kishilarga yetkazib beruvchilardir.
7. Muqallidlar. Ijtihad va fatvo darajasiga yetmaganlar. Ularga mazhabga ergashish vojibdir. To'rtinchiji hijriy asrgacha ko'plab mujtahidlar faoliyat olib borgan, har birining o'ziga xos uslubi, yo'nalishi bo'lgan va ko'plarining o'z mazhablari bo'lgan. Abdulvahhob ibn Ahmad as-Sha'roniy (vaf. 973/1565) o'zining "al-Miyan ash-sha'roniyya" asarida mazhablar sonini quyidagicha zikr qilgan:
 1. Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.) (vaf. 32/653) mazhabi
 2. Oisha (r.a.) (vaf. 58/678) mazhabi
 3. Abdulloh ibn Umar (r.a.) (vaf. 73/692) mazhabi
 4. Umar ibn Abdulaziz ibn Marvon ibn Hakam (vaf. 101/720) mazhabi
 5. Mujohid ibn Jobir (vaf. 104/722) mazhabi
 6. Sha'biiy (vaf. 103/721) mazhabi
 7. Ato ibn Abu Raboh (vaf. 114/732) mazhabi
 8. Al-A'mash Sulaymon ibn Mehron (vaf. 148/765) mazhabi
 9. Imom A'zam (vaf. 150/767) mazhabi
 10. Sufyon as-Savriy (vaf. 161/778) mazhabi
 11. Imom Lays ibn Sa'd (vaf. 175/791) mazhabi
 12. Imom Molik (vaf. 179/795) mazhabi
 13. Sufyon ibn Uyayna (vaf. 198/814) mazhabi
 14. Imom Shofe'iy (vaf. 204/820) mazhabi
 15. Ishoq ibn Ibrohim ibn Rohavayh (vaf. 238/852) mazhabi

² Ibn Obidiyn. Hashiya ibn Obidiyn. –Riyoz: Dar alam al-kutub, 2003. J.1.-B: 41.

16. Imam Ahmad (vaf. 241/855) mazhabi

17. Imam Dovud (vaf. 270/884) mazhabi

18. Muhammad ibn Jarir Tabariy (vaf. 310/923) mazhabi³

Ushbu mujtahidlar asos solgan mazhablarning hammasi ham o'z vaqtida amalda bo'lgan.

Lekin vaqt o'tishi bilan muayyan omillarga ko'ra, bu mazhablarning orasidan to'rt mazhab ajralib chiqdi:

1. Hanafiy

2. Molikiy

3. Shofeiy

4. Hanbaliy mazhablari

Bizningcha, to'rt mazhab saqlanib qolishining asosiy omili bu mazhablar ta'limotlari boshqa mazhablardan kuchliroq ekani emas, balki to'rt mazhab boshqa o'n to'rt mazhab ta'limotini ham qamrab olganidir.

Movarounnahr fiqh maktabining o'ziga xos jihatlaridan, yutuqlaridan biri unda mazhablarni qiyosiy o'rganish maktabi shakllanganidir. Huquqshunoslik sohasida "Qiyosiy huquqshunoslik" alohida yo'naliish hisoblanadi. Turli huquqiy ta'limotlarni qiyoslash, solishtirish, yondashuvlarni tahlil qilishga qurilgan mazkur fanga dastlabki qadam, dastlabki tamal toshi Markaziy Osiyoda, uning qadim ilmiy markazlaridan biri Buxoroda qo'yilgan. Abu Zayd Dabusiy o'z asarida mazhablarning huquqiy qarashlarini qiyoslaydi. Professor A.Sh.Jo'zjoni fikricha, alloma qiyosiy huquqshunoslikning asoschisi hisoblanadi⁴. Dunyo huquqshunoslik tizimida "comparative law" - qiyosiy huquqshunoslik alohida o'ringa ega. Taniqli huquqshunos olim, akademik A.X.Saidov bu fanni komparativistika deya nomlanishini ta'kidlagan. A.X.Saidov mazkur yo'naliishda bir qancha kitoblar va darsliklarni ta'lif etgan⁵.

Mahmud Zamaxshariy bilan zamondosh bo'lgan, asarlar ta'lif etgan quyidagi mashhur mazhab faqihlarini zikr ish mumkin.

Mashhur hanafiy faqihlar:

1. Shamsul-aimma Muhammad ibn Ahmad as-Saraxsiy

2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Domg'oniy

3. Ali ibn Muhammad Bazdaviy

4. Shamsul-aimma Bakr ibn Muhammad Zaranjariy

5. Tohir ibn Ahmad Abdur Rashid Buxoriy

6. Abu Bakr Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy

7. Abu Ishoq Ibrohim ibn Ismoil As-Sifor

8. Abu Bakr ibn Mas'ud ibn Ahmad Kosoniy

9. Faxriddin Hasan Mansur O'zganiy Farg'oniy Qozixon

10. Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Burhoniddin Marg'inoniy⁶

Mashhur molikiy faqihlar:

³ Sha'raniy. Al-miyzan ash-sha'raniya. –Damashq, Dar al-fatva lit-tiba'a van-nashr, 2021. –B. 194

⁴ Jo'zjoni A. Islom huquqi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyolik faqihlar. –T: Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2002. –B.245.

⁵ Saidov A.X. Sravnitelnoye pravovedeniye. –Moskva: Yuridicheskoye izdatelstvo Norma, 2021.-320 s.

⁶ Islomov Z. Saidjalolov S. Mahmud Zamaxshariy va fiqh ilmi. –T.: Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. –B.28

1. Abul-Valid Sulaymon ibn Xalaf Al-Bojiy.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Umar at-Tamimiy al-Mozar'iy.
3. Abu Bakr Muhammad ibn Abdulloh, Ibnul Arabiy.
4. Qozi Iyoz, Abul-fazl Iyoz ibn Muso al-Yaxsabiy.
5. Ismoil ibn Makkiy al-Ufiy.
6. Muhammad ibn ahmad Ibn Rushd al-Hafiyd.
 Mashhur shofeiy faqihlar:
 1. Abu Ishoq Ibrohim ibn Ali Feruzobodiy.
 2. Ibn Sabbog' Abu Nasr Abdussayyid ibn Muhammad.
 3. Abu Sa'iyd Abdurrahmon ibn Ma'mun al-Mutavalliy.
 4. Imomul-haramayn Abul-Ma'oliy Abdulmalik ibn Abdulloh al-Juvayniy.
 5. Abul-Mahosin Abdulvohid ibn Ismoil ar-Ruyoniy.
 6. Hujjatul-islom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy.
 7. Abu Ishoq Ibrohim ibn Mansur al-Iroqiy.
 8. Abu Sa'd Abdulloh ibn Muhammad Hibatulloh ibn Abiy Asrun at-Tamimiy al-Musiliy.
 Mashhur hanbaliy faqihlar:
 1. Ash-Shariyf, Abu Ja'far al-Hoshimi.
 2. Ibnul-Banno Hasan ibn Ahmad Abdulloh al-Bag'dodiy.
 3. Al-Xalvoni, Muhammad ibn Ali ibn Usmon.
 4. Abul-Xattob, Mahfuz ibn Ahmad ibn Hasan.
 5. Ibn Aqiyl, Ali ibn Muhammad al-Bag'dodiy.
 6. Ibn az-Zag'veni, Ali ibn Abdulloh Nasr.
 7. Abdulloh ibn Abdulvohid ibn Muhammad Sheroyi.
 8. Ibn Abdus, Ali ibn Umar ibn Ahmad.
 9. Ibn Hubayra, Yaxyo ibn Abiy Mansur al-Vaziyr⁷.

Islom dini ta'lilotida asosiy aqidaviy masalalar yuzasidan davom etgan g'oyaviy bahslar deyarli yakun topgan, buning natijasi o'larоq fiqh ilmi ilmi taraqqiy topgan davrda yashagan Mahmud Zamaxshariy, tabiiyki mazkur sohaga bag'ishlangan asarlar ta'lif etgan. Mahmud Zamaxshariy (nafaqat mufassir, tilshunos, adib va shoир, balki yetuk faqih sifatida ham tanildi.

Zamaxshariyning fiqh, ya'ni islom huquqi sohasi bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ilk bosqichida allomaning yetuk faqih, yetuk huquqshunos ekanı borasidagi fikrlarga ayrim zamondosh mutaxassislar tomonidan e'tiroz bildirilgan edi. Mahmud Zamaxshariyni asosan mohir tilshunos, lug'atshunos, tafsirshunos sifatida bilardilar. Ammo yillar davomida uning fiqhiy merosini o'rganish alloma nafaqat tilshunoslik, lug'atshunoslik, adabiyotshunoslik, tafsirshunoslikning, balki shariat masalalari, islom huquqiga oid ibodat va muomalot ahkomlarining ham yetuk bilimdoni ekanini ko'rsatdi.

⁷ O'sha asar.-B.30